O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 504

Muxayyo E. RAXMATOVA,
Katta o‘qituvchisi, PhD, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O‘zbekiston
Doniyor Sh. SHUXRATOV,
Magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Shahrisabz, O‘zbekiston
E-mail: doniyorshuxratov4033@gmail.com, ORCID: 0009-0009-6895-5819

ATMU dotsenti, PhD, Z.T. Kenjayev taqrizi asosida

GLOBAL EKOLOGIK MUAMMOLARNING YUZAGA KELISHINING ASOSIY SABABLARI

Annotatsiya

Ushbu matnda zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida inson faoliyatining atrof-muhitga salbiy ta’siri hamda ekologik muvozanatning buzilish jarayonlari tahlil qilingan. Ekologiya tushunchasining shakllanish tarixini Aristotel g‘oyalaridan boshlab o‘rganadi va ekologik muammolarni global, mintaqaviy hamda lokal guruhlarga ajratadi. Insonning tabiatga “aks ta’siri” va global iqlim o‘zgarishlari biosferadagi eng jiddiy xavf-xatarlar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola ekologiya, barqaror rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis hamda tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: Urbanizatsiya, geologik va geokimyoviy, bioxilma-xillik, ekologik, organik va noorganik, tabiiy-antropogen, transchegaraviy, umumbashariy, mahalliy, global, ekologik muvozanat.

MAIN CAUSES OF GLOBAL ENVIRONMENTAL PROBLEMS

Annotation

This text analyzes the negative impact of human activity on the environment and the processes of disruption of the ecological balance in the conditions of modern social development. It studies the history of the formation of the concept of ecology, starting from the ideas of Aristotle, and divides ecological problems into global, regional and local groups. The “negative impact” of man on nature and global climate change is indicated as the most serious threats to the biosphere. The article is intended for specialists and researchers involved in ecology, sustainable development and environmental protection.

Key words: Urbanization, geological and geochemical, biodiversity, ecological, organic and inorganic, natural-anthropogenic, transboundary, universal, local, global, ecological balance.

ОСНОВНЫЕ ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ГЛОБАЛЬНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ

Аннотация

В данной работе анализируется негативное воздействие человеческой деятельности на окружающую среду и процессы нарушения экологического баланса в условиях современного социального развития. Изучается история формирования концепции экологии, начиная с идей Аристотеля, и экологические проблемы делятся на глобальные, региональные и локальные группы. «Негативное воздействие» человека на природу и глобальное изменение климата указываются как наиболее серьезные угрозы биосфере. Статья предназначена для специалистов и исследователей, работающих в области экологии, устойчивого развития и охраны окружающей среды.

Ключевые слова: Урбанизация, геологические и геохимические аспекты, биоразнообразие, экологические аспекты, органические и неорганические вещества, природно-антропогенные факторы, трансграничные процессы, универсальные, локальные, глобальные, экологический баланс.

Kirish. Hozirgi zamonaviy jamiyat rivojlanishi sharoitida atrof-muhit holatining izchil yomonlashuvi global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va inson xavfsizligiga tahdid soluvchi omil sifatida qaralmoqda. Sanoat va texnologik jarayonlarning jadallashuvi, zavod va fabrikalarning bogan sari ortib borishi, urbanizatsiyaning kengayishi hamda tabiiy resurslardan yuqori intensivlikda foydalanish ekologik tizimlarning tabiiy muvozanatini izdan chiqarib, ularning o‘zini-o‘zi tiklash salohiyatini sezilarli darajada cheklamoqda. Inson faoliyati ta’sirida biosferaning o‘zgarishi juda tezlik bilan boryapti. Inson Yer kurrasining qiyofasini o‘zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V. I. Vernadskiy tomonidan ta’kidlab o‘tilgan edi. Insonning geologik va geokimyoviy faoliyatini sarhisob qiladigan bo‘lsak nihoyatda katta. Insonning tabiiy jarayonlarga ana shunday munosabatda bo‘lishi natijasida XX asrning o‘rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi.

Insoniyat tarixi tabiat bilan uzviy bog‘liq. Biroq, XX asrning o‘rtalariga kelib, fan va texnika rivoji, sanoatlashishning yuqori cho‘qqisiga chiqishi insonning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini tubdan o‘zgartirib yubordi. Inson o‘zini tabiatning ajralmas qismi emas, balki uning so‘zsiz hukmdori deb hisoblay boshladi. Bunday noto‘g‘ri va shafqatsiz munosabatning qonuniy natijasi o‘laroq, o‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab sayyoramizda ekologik muammolar misli ko‘rilmagan darajada avj oldi va insoniyat sivilizatsiyasini xavf ostiga qo‘ydi. Ekologik muammo — bu shunchaki tabiatning zarar ko‘rishi emas. Bu, eng avvalo, insonning atrof-muhitga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siriga javoban, tabiatning insoniyatga qaytarayotgan keskin “aks ta’siri”dir. Tabiat o‘ziga yetkazilgan jarohatlar uchun insonning iqtisodiyoti, xo‘jalik hayoti va sog‘lig‘iga zarba berish orqali javob qaytarmoqda. Bu aks ta’sirlar bugungi kunda kutilmagan stixiyali talafotlar, iqlimning global o‘zgarishi, bioxilma-xillikning kamayishi va hayvonot dunyosining yalpi ko‘chib ketishi yoki yo‘qolib borishi kabi halokatli hodisalarda namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Zoolog Ernst Gekkel (1834–1919) 1866-yilda ekologiya so‘zini kiritganida, uni "hayvonning organik va noorganik muhit bilan aloqasi" deb ta’riflagan. Lekin uni u yaratganmi? Dunyoning birinchi zoologi deb hisoblangan Aristotel, miloddan avvalgi 350-

yillarda yozilgan "Hayvonlarning qismlari" asarida bu g‘oyaga hayratlanarli darajada oldindan ko‘rib chiqishni taqdim etgan. Aristotel bizni hayvonlarni atrofimizdagi kengroq dunyo, jumladan, o‘zimiz haqida nimalarni ochib berishini diqqat bilan o‘rganishga undaydi, chunki uning so‘zlariga ko‘ra, "Tabiat hech narsani behuda qilmaydi" va "butun tabiatda ajoyib narsa bor". Uning ilmiy tadqiqotlar har doim tizimli yaxlitliklar bilan bog‘liq bo‘lishi kerakligi haqidagi ta’kidlashi ayniqsa ilhomlantiruvchi: Biosfera bilan uy sharoitimizni tasvirlash uchun uy (oikos) tasviridan foydalanish, albatta, "ekologiya" va 1935-yilda paydo bo‘lgan "ekotizim" so‘zlarining etimologik va kontseptual markazida yotadi. Bu o‘lik metafora emas va Gekkel yoki XIX asrdan ancha qadimgi. Yer har xil organizmlarning uyidir.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavjud adabiyotlar asosidagi nazariy sharh shaklida tuzilgan. Tahlilda inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy ketma-ketlikda ko‘rib chiqilib, ekologik muammolar geografik ko‘lami bo‘yicha global, mintaqaviy va mahalliy darajalarda qiyoslanadi. Orolbo‘yi misoli orqali antropogen ta’sirning ekologik va ijtimoiy oqibatlari muhokama qilinadi. Ushbu yondashuv yangi empirik o‘lchov natijalarini emas, maqolada keltirilgan nazariy qarash va misollarni tizimlashtirishni ifodalaydi.

Tahlil va natijalar. Olimlar va ekologlar bugungi kunda mavjud bo‘lgan barcha ekologik xavf-xatarlarni ularning geografik ko‘lami va ta’sir doirasiga ko‘ra uchta asosiy guruhga ajratadilar:

Umumbashariy (Global) muammolar: Butun sayyora va undagi jamiki tiriklikka daxldor bo‘lgan inqirozlar hisoblanadi. Bu muammolar sof tabiiy omillar, tabiiy-antropogen yoki butunlay inson faoliyati (antropogen) oqibatida yuzaga keladi. Iqlim o‘zgarishi, ozon qatlamining yuqalishi va Dunyo okeanining chiqindilar bilan to‘lishi bunga yaqqol misoldir. Bunday muammolarni bir mamlakat doirasida hal qilib bo‘lmaydi.

Mintaqaviy (Regional) muammolar: Muayyan bir qit’a, yirik geografik hudud yoki bir nechta davlatlar chegarasini qamrab oluvchi muammolardir. Masalan, Markaziy Osiyodagi Orol dengizining qurishi va uning atrofidagi tuz bo‘ronlari transchegaraviy xususiyatga ega bo‘lib, butun bir mintaqa ekotizimi va iqtisodiyotiga putur yetkazmoqda.

Mahalliy (Lokal) muammolar: Kichik hududlar, aniq bir shahar, tuman yoki korxona atrofida sodir bo‘ladigan ekologik buzilishlardir. Ma’lum bir zavodning suv havzasini ifloslantirishi yoki shahar ichidagi maishiy chiqindixonalarning to‘lib ketishi lokal muammo hisoblanadi. To‘g‘ri, ularning ko‘lami kichik, ammo o‘z vaqtida hal etilmasa, mintaqaviy muammoga aylanish xavfini tug‘diradi.

Bizni o‘rab turgan tabiat yoki atrof muhitning monitoringi biosferaning holatini kuzatish va undagi o‘zgarishlami uzoq vaqt davomida o‘rganish hamda baholashni o‘rganadi. Bundan tashqari antropogen omillar ta’sirida inson sog‘ligi boshqa tirik organizmlaming rivojlanishiga tasir ko‘rsatuvchi jiddiy vaziyatlarning oldini olishni maqsad qilib qo‘ygan. Monitoring kuzatishlarning hajmidan kelib chiqib, o‘rganadigan joyning katta-kichikligiga qarab monitoring uchga bo‘linadi: global, hududiy va lokal (bir-biriga bog‘liq). Global monitoringning bosh vazifasi-butun dunyoda bo‘layotgan jarayonlami va antropogen omillaming biosferaga tasirini o‘rganish [1].

Yirik shaharlarning vujudga kelishi, aholi sonining va sanoat markazlarining ortishi bilan kishilarning tabiat quchog‘ida dam olishga ehtiyojlari ham ortib bormoqda. Ayniqsa o‘rmonlar ana shunday dam olish maskanlariga aylanib bormoqda. Dunyo bo‘yicha o‘rmonlarning holati yaxshi emas. Har yili 3 mlrd. m3 hajmda o‘rmonlar qirilmoqda, FAO ma’lumotlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich 2000-yilga borib 1,5 martaga ortadi. Insoniyatni, ayniqsa tropik va subtropik o‘rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo‘lgan o‘rmonlariing yarmidan ko‘pi kesib tashlanmoqda. 160 -mln. gektar tropik o‘rmonlar vayron bo‘lgan, atigi yiliga 1G mln. gektar maydon tiklanmoqda [2].

Yer yuzining har bir hududi o‘ziga xos tabiiy-iqlim sharoiti, ijtimoiy-ekologik holati va demografik xususiyatlariga ega. Aynan ushbu omillar ma’lum bir mintaqada inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar xarakterini belgilab beradi. Biroq, insonning iqtisodiy manfaatlari tabiat qonunlaridan ustun qo‘yilganda, mintaqaviy (regional) ekologik muammolar yuzaga keladi. Havoning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, yaylovlarning ishdan chiqishi va o‘rmonlarning kesilishi kabi mezonlar bilan baholanadigan bu muammolar bugun butun boshli geosiyosiy hududlar hayotiga xavf solmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT minbaridan turib, Orol dengizining qurishi shunchaki mintaqaviy muammo emas, balki sayyoraviy miqyosdagi global fojia ekanligini qat’iy ta’kidladi. Davlat rahbari o‘z nutqida dengiz o‘rnida hosil bo‘lgan va zaharli tuzlarni dunyo miqyosida tarqatayotgan Orolqum sahrosining halokatli ta’sirini kamaytirish uchun xalqaro kuchlarni birlashtirishga chaqirdi. Ushbu fojia oqibatlarini yumshatish maqsadida Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e’lon qilish, iqlim o‘zgarishlariga moslashish hamda hududda keng ko‘lamli yashil o‘rmonlar barpo etish tashabbusi ilgari surildi. Prezident ta’kidlaganidek, bugungi avlodning asosiy vazifasi — Orol fojiasining tabiat va insoniyat hayotiga ko‘rsatayotgan halokatli ta’sirini maksimal darajada kamaytirishdan iboratdir [3].

Bugungi kunda har bir geografik hudud o‘zining iqlimi va ekotizimi bilan insoniyat hayotini ta’minlab kelmoqda. Biroq, insonning tabiat resurslariga bo‘lgan cheksiz ehtiyoji ko‘pincha hududiy miqyosdagi o‘nglab bo‘lmas fojialarga sabab bo‘ladi. Mening fikrimcha, Markaziy Osiyo mintaqasidagi eng dolzarb, eng yirik va kechiktirib bo‘lmas ekologik muammo — bu shubhasiz Orol va Orolbo‘yi inqirozidir. Ushbu inqiroz shunchaki bir havzaning qurishi emas, balki butun bir mintaqa tabiatining insoniyat xatolariga ko‘rsatgan fojiali aks ta’siridir. Tarixga nazar tashlasak, Orol dengizi yaqin o‘tmishgacha shunchaki oddiy suv havzasi bo‘lmagan. U o‘zining ulkan maydoni bilan dunyodagi eng yirik ko‘llardan biri hisoblanar edi.

Mening nazarimda, Orol mintaqa iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining yuragi edi. Negaki, u yerda baliqchilik sanoati gullab-yashnagan, ovchilik rivojlangan, yirik transport-kema yo‘llari mavjud bo‘lgan hamda odamlar hordiq chiqaradigan betakror rekreatsiya (kurort) maskanlari faoliyat yuritgan. Dengiz hudud iqlimini yumshatib, tabiat bilan inson o‘rtasidagi muvozanatni saqlab turgan. Mening fikrimcha, fojianing boshlanishiga tabiat ustidan g‘olib chiqishga urinish, ya’ni rejasiz sug‘oriladigan dehqonchilikning keskin rivojlantirilishi sabab bo‘ldi. Paxta maydonlarini sug‘orish uchun daryolarning to‘sib qo‘yilishi hamda ketma-ket kelgan qurg‘oqchilik yillari Orolni hayot manbaidan mahrum qildi. Buni daryo suvi quyilishining ayanchli xronologiyasida yaqqol ko‘rishimiz mumkin: 1970-yilga kelib: Amudaryo va Sirdaryodan Orolga quyilayotgan yillik suv hajmi keskin kamayib, 37,8 km³ ga tushib qoldi. 1980-yilga kelib: Vaziyat fojiali tus oldi va bu ko‘rsatkich bor-yo‘g‘i 11,1 km³ ni tashkil etdi. 1980-yillarning boshlarida esa: Inson faoliyatining salbiy oqibati o‘laroq, har ikki ona daryoning suvi dengizga yetib bormay, quyilish butunlay to‘xtadi.

O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996-yil 26-apreldagi qarori bilan tasdiqlangan Nizomga ko‘ra, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish

va ularni qayta tiklash bo‘yicha davlat nazoratini hamda tarmoqlararo boshqaruvni amalga oshiruvchi, idoralardan ustun turuvchi va muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli davlat organidir. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri qonun chiqaruvchi hokimiyat — Oliy Majlisga bo‘ysunadi va unga hisobdordir. Chunki Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi xo‘jalik yurituvchi subyekt emas, balki tabiatni muhofaza qilishning kompleks nazoratini olib boruvchi organdir. Shuning uchun ham Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis tasdig‘iga taqdim qiladi [4].

Mening nazarimda, ayrim mintaqaviy muammolar o‘z vaqtida hal etilmasa, ular butun dunyoga tahdid soluvchi umumbashariy fojiaga aylanadi. Bunga eng yaqqol misol — Orol va Orolbo‘yi muammosidir. Bir paytlar u faqat Markaziy Osiyo doirasidagi masala deb qaralgan bo‘lsa-da, bugun Orol va Orolbo‘yi inqirozi global ekologik muammolar toifasiga kiritilgan. Chunki qurigan dengiz tubidan ko‘tarilayotgan zaharli tuzlar va changlar nafaqat bizning mintaqamiz, balki butun Yer kurrasining ekologik xavfsizligiga daxldor masaladir. Regional (mintaqaviy) muammolarga kelsak, ular bir necha qo‘shni davlatlar xavfsizligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahdid soladi. Masalan, Tojikiston Respublikasining Tursunzoda shahridagi alyuminiy zavodi (TALCO) chiqindilarining atrof-muhitga tarqalishi va qo‘shni hududlar, xususan, O‘zbekistonning chegaraoldi tumanlari tabiati hamda aholisi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani aynan regional turdagi ekologik muammoning yaqqol namunasidir.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrlarda inson tafakkurining rivojlanishi ilm-fanning taraqqiy etishi o‘z navbatida insonning turli ehtiyojlarini qondirishga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizini mustahkamlashga xizmat qildi. Albatta, yangi texnologik jarayon ish unumdorligi, iqtisodiy daromadni ko‘paytirishi bilan bir qatorda tabiiy resurslarning holatiga salbiy ta’sirlarni oshirishga, shuningdek tabiat bilan jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatni buzilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatning shunday yo‘lga qo‘yilishi kerakki o‘zaro ta’sirlar natijasida tabiiy resurs, ekologik tizimlar holati va aholining sog‘ligi, hayoti va ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarining darajasiga bo‘ladigan salbiy oqibatlarni iloji boricha kamayishiga olib kelinishi zarurdir [5].

Tarixiy jarayonlarga nazar solsak, tabiat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha shakllarda namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. Ibtidoiy jamoa davrida inson tabiatga to‘liq qaram bo‘lgan bo‘lsa, sanoat inqiloblari davriga kelib, tabiatga nisbatan "iste’molchilik" va uni bo‘ysundirish kayfiyati ustunlik qila boshladi. Har bir tarixiy davr o‘zining ehtiyojlaridan kelib chiqib, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni asrashning o‘ziga xos qoida va tartiblarini joriy etgan. Biroq, texnika taraqqiyoti va aholi sonining o‘sishi tabiatga bo‘lgan bosimni keskin oshirib yubordi, bu esa o‘z navbatida ekologik muvozanatning buzilishiga olib keldi.

Bugungi zamonaviy dunyoda bu muammoning yagona va eng samarali yechimi — munosabatlarni huquqiy tartibga solishdir. Yer, yer osti boyliklari, suv, atmosfera havosi hamda o‘simlik va hayvonot dunyosidan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarning qonun qoidalari bilan mustahkamlanishi jamiyatda tartibni ta’minlaydi. Huquqiy normalar nafaqat resurslarni taqsimlaydi, balki ularni asrash, qayta tiklash va kelajak avlod oldidagi mas’uliyatni ham belgilab beradi. Ekologik huquq tizimi aynan "tabiat-jamiyat" tizimidagi nozik muvozanatni saqlashga, ekologik inqirozlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. XIX-XX asrlardagi texnologik va ilmiy taraqqiyot insonning iqtisodiy ehtiyojlarini qondirgan bo‘lsa-da, tabiat qonunlaridan ustun qo‘yilgan iqtisodiy manfaatlar (havoning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, o‘rmonlar kesilishi) muvozanatni buzdi. Insoniyat yashab qolishi uchun tabiat bilan munosabatlarni shunday shakllantirishi kerakki, har qanday texnologik jarayon ekotizimga va aholi salomatligiga minimal darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi, atrof-muhit monitoringi esa doimiy nazoratda bo‘lishi shart. Mintaqaviy muammolar o‘z vaqtida hal etilmasa, muqarrar ravishda umumbashariy fojiaga aylanadi. Bundan tashqari hozirgi kunda ekologik jarayonlar juda jadal rivojlanib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Yormatova D. Ekologiya: Darslik. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2012. – 320 b. – B. 172.
2. To’xtayev A.S. Ekologiya. – Toshkent: «O’qituvchi», 1998. – 184 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi // Yangi O’zbekiston — taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: «O’zbekiston», 2021. – B. 84-87.
4. Nigmatov A.N. Ekologiya asoslari: O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: «O‘qituvchi», 2005. – 216 b. – B. 62.
5. Usmonov M.B. Ekologiya huquqi: Darslik. – Toshkent, 2001. – 253 b. – B. 22.
6. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
7. Barbier E. B. Nature and Wealth: Overcoming Environmental Scarcity and Inequality. - London: Palgrave Macmillan, 2015.